

QORAMOLLARNING TUYOQ KASALLIKLARINI DELOONG PREPARATI BILAN DAVOLASH

Arziyev Xidir Yuldashovich

TDAU dotsenti, v.f.n. E-mail: arziyevxidir70@mail.ru

Ataniyazov Saparniyaz Barliqbaevich

SDVMShBU Nukus filiali magistranti. Email: saparata777@gmail.com

Jumamuratov Elmurat Jaksimurat og'li – izlanuvchi

Shoasrarov Akmal Abbos o'g'li - izlanuvchi

Qisqacha mazmuni: Maqolada Qoraqalpoqiston respublikasi Xo'jayli tumani hududidagi "Mo'ynaq kelajagi bunyodkorlari" chorvachilik fermer xo'jaligiga xorijdan olib kelinib tabiiy sharoitda Nekrobakterioz kasalligiga chalingan, hamda ushbu xo'jalikda parvarishlanayotgan 18 bosh yirik shoxli hayvonlarda olib borilgan davolash ishlarining natijalari keltirilgan. Olingan natijalarga ko'ra kasallangan hayvonlar tuyoqlari furacillin eritmasi bilan yuvilib yara tozalangandan keyin 3% li vodorod peroksid eritmasi bilan yuvilib so'ngra ACD 3 preparati surtilib, ustiga streptotsid tabletkasi maydalab sepilib davolangan. Hayvonlar tuliq tuzalishi uchun o'rtacha 34 kun, furacillin eritmasi bilan yuvilib yara tozalangandan keyin, vodorod peroksid eritmasi bilan yuvilib, sungra sungra Levomicol preparati surtilib, streptotsid va Levomitsetin tabletkalari maydalab sepilib davolangan hayvonlar tuliq tuzalishi uchun o'rtacha 17 kun, furacillin eritmasi bilan yuvilib yara tozalangandan keyin, vodorod peroksid eritmasi bilan yuvilib, sungra Levomicol, Deloong preparatlariga streptotsid, Levomitsetin va rifamitsin tabletkalari maydalab aralashtirilib, aralashma yaraga surtilib davolangan hayvonlar tuliq tuzalishi uchun sarflangan vaqt, o'rtacha 11 kun sarflanganligi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Deloong, rifamitsin rezistentlik, furacillin, vodorod peroksid, streptotsid, Levomitsetin, Levomicol, Golshtin-friz, Simmental.

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda dunyo miqyosida oziq-ovqat masalasini hal etish eng dolzarb muammo sanaladi. Bu muammoning negizida hayvonat olamidan olinadigan go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, hamda parrandalardan olinadigan go'sht va tuxum mahsulotlarini kupaytirish, ya'ni chorvachilik tarmog'ini intensiv rivojlantirish yotadi. Hech kimga sir emaski hozirgi vaqtda dunyo aholisi, jumladan bizning respublikamiz aholisi ham jadal kupaymoqda, shunga muvofiq chorva mollari soni ham oshmoqda, lekin ulardan olinayotgan gusht, sut, tuxum mahsulotlari aholi ehtiyojini tuliq ta'minlay olmayapdi. Aholi bu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini tula qondirish uchun chorva hayvonlarini intensiv parvarishlash va ulardan olinayotgan mahsulotlar miqdorini sezilarli darajada oshirgan holda bu maqsadga

erishish mumkin. Shuning uchun bugungi kun chorvadorlar, hususan veterinariya mutaxasislari oldiga juda katta vazifalarni quymoqda. Shunki hayvonlardan sifatli va ko'p miqdorda mahsulot olish uchun avvodlo ularning sog'ligini mustahkamlash, sog'lom havonlar poda sutrukturasini yaratish lozim. Shorvachilikda o'tkaziladigan barcha chora- tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish juda muhim chunki yuqumli, yuqumsiz va invazion kasalliklar hayvonlardan olinadigan chorva mahsulotlarini keskin kamaytiradi, kupincha hayvonlar bosh sonini ham sezilarli darajada kamaytiradi va shu bilan xalq xo'jaligiga qolaversa davlat byudjetiga katta iqtisodiy zarar keltiradi. Iqtisodiy zararining asosiy qismini ya'ni eng ko'pini yuqumli kasalliklardan keladigan iqtisodiy zarar tashkil qiladi. Shorva hayvonlariga katta xavf soladigan kasalliklar kasalliklar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Adabiyotlarda keltirilgan dalillarga ko'ra birgina oqsil kasalligidan keladigan iqtisodiy zarar, barcha invazion kasalliklar keltiradigan iqtisodiy zararga teng bo'ladi. Hayvonlarda uchraydigan nekrobakterioz kasalligi ham yirik va mayda shoxli hayvonlar, hususan xorijdan keltirilgan naslli mollar orasida juda ko'p uchraydi va chorvachilik xo'jaliklariga katta iqtisodiy zarar keltiradi. Avvalo hayvonlardan olinadigan mahsulotlar kamayadi, kasallik tarqalgan hududlarda kasallangan hayvonlarning 10-12 foizi, davolash ishlari samarali tashkil qilinmagan chorvachilik xujaliklarida 50-60 foizgacha o'lishi mumkin. Bundan tashqari davolash va oldini olish tadbirlarini o'tkazish uchun ham iqtisodiy jihatdan xarajat qilinadi. Bu kasallik hayvonlarda ko'pincha oyoqlarining oqsashiga olib keladi, ulardan olinadigan mahsulotlar keskin kamayadi natijada chorvachilik xo'jaliklariga iqtisodiy jihatdan katta zarar keltiradi.

Tadqiqotchilar ma'lumotlari bo'yicha 93,5-95,2% holatda hayvonlarning orqa oyoqlari, 10-12% holatda esa ikkala oyog'ining ham zararlanishi aniqlangan. Shuningdek, hayvonlarda tuyuq kasalliklarining ichida yiringli pododermatit hamda yiringli-nekrotik yaralar ustunlik qiladi va ular qayd etilgan umumiy holatlarning 40-50 foizini tashkil etadi [2. Gugkaeva M.S., 2011; 67-72-b.].

V.N.Bannikovning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xo'jaliklarda 20% dan 40% gacha sigirlarda oyoqlar distal bo'limining turli etiologiyali kasalliklari mavjud bo'lib, hayvonlar mahsuldorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Kasallik etiologiyasi va davomiyligi bilan bog'liq ravishda sut mahsuloti 35% dan 65% gacha yo'qotiladi [1. Bannikov V.N.2007; 15-16-b.].

Sigirlarda oyoqlarning distalismi patologiyalari ichida eng keng tarqalgani yiringli-nekrotik jarayonlari hisoblanadi. Distal qismdagi yiringli-nekrotik patologiyalar orasida eng katta foiz (71,8%) yaralar (tuyok aylanasi, yumshok tovon, barmoqlararo yoriq, Mortellaro kasalligi), kamroq darajada pododermatit va laminit - 11,21%, tiloma - 5,9%, Rustergols yarasi - 3,59%, yiringli jarohatlar va shilinishlar - 2,68%. [4 Rukol, V.M. 2014. 42-46 bet.].

Golshtin-friz zotiga mansub sigirlar barmoq sohasida yiringli-nekrotik jarayonni

uchrash darajasi hamda patologik o'zgarishlar o'rganilgan bo'lib, tadqiqotchining malumotlariga ko'ra, ortopedik patologiyalar adaptatsiya muddati bir yil bo'lgan 13,26% sigirlarda uchragan, shulardan 75% barmoq sohasidagi turli kasalliklarni, 25% tuyoq deformatsiyasini tashkil etgan. Jarrohlik jarayonlaridan 55,56% yara, 33,33% pododermatitlar, 11,11% tilomalar hisoblanadi [3 Uteev R.A. 2013.-18 -bet.,3].

Chorvachilik komplekslari va fermalarida ortopedik dispanserlash o'tkazish texnologik jarayonlarning ajralmas qismi bo'lishi zarurligi tadqiqotchilar tomonidan alohida ta'kidlanadi. Ularning fikrlariga ko'ra, chorvachilik komplekslarining sut va bo'rdoqi yo'nalishidagi hayvonlarini muntazam ortopedik dispanserlash sut va go'sht qoramolchiligiga veterinariya xizmati texnologiyasida samarali tadbir hisoblanadi [6 Timofeev S.V.,2009; 78-80-b.].

X.S.Salimov, A.A. Qambarov va I.X.Salimovlarning ma'lumotlariga ko'ra bu kasallik bilan hamma tur hayvonlar kasallanadi. Moyillic bo'yicha bug'ular, quy-echkilar, qoramollar, chuchqa va otlar oldinma keyin o'rinlarni egallaydi. Hamma yoshdagi, biroq yosh hayvonlar ko'proq kasallanadi. Buning asosiy sababi yosh hayvonlar terisi yupqa va bo'sh bo'lganligi tufayli jarohatga tez beriluvchanligidir. Kasallik rivojlanishida hayvonlarni rezistentligini ta'minlovchi zoogigienik me'yorlar asosida saqlash, harvarish qilish va to'yimli ozuqalar bilan boqish hamda organizmga kirgan quzg'atuvchining miqdori va virulentligi katta ahamiyatga ega. Kasallikka quyon va parrandalardan tovuqlar eng moyil hisoblanadi. Odam ham sezgir.

Tadqiqot maqsadi Qoraqolpoqiston respublikasiga xorijdan olib kelingan yirik shoxli hayvonlarni tuyoq kasalliklarini etiologiyasini aniqlash hamda jarayon biologiyasini o'rganish, davolash va oldini olishning samarali usulini ishlab chiqish. Qoramollarning xususiyatlari va patologik jarayonining og'irligini hisobga olgan holda tuyoq kasalliklarini davolashda parenteral va jarrohlik usullarining samarasini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari. Mazkur qo'yilgan maqsadni bajarish uchun quyidagi vazifalarini, yani ilmiy tadqiqotlar ishlarini amalga oshirishni lozim deb hisoblaymiz:

Tanlangan xo'jalikda qoramollarni tuyoq kasalliklari bilan zararlanish darajasini aniqlash.

Tuyoq kasalliklari tufayli oqsayotgan hayvonlarni ajratib ularni alohida guruhlariga bo'lib saqlash.

Tuyoq kasalliklari bilan og'rgan hayvonlarni xo'jalik, ya'ni ananaviy usulida davolash.

Tuyoq kasalliklariga chalingan hayvonlarni Deloong prerarati bilan, yani zamnaviy usulda davolash va uning terapevtik samarasini aniqlash.

Tekshirish materiallari, usullari Tadqiqotlar Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filali "Veterinariya va zootekhnika" fakulteti "Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi" kafedrasida

o'quv laboratoriyasi, hamda Qoraqalpoqiston respublikasi Xo'jayli tumani hududidagi "Mo'ynaq kelajagi bunyodkorlari" chorvachilik fermer xo'jaligi sharoitida parvarishlanayotgan xoriydan olib kelingan 240 bosh yirik shoxli hayvonlar kuzdan kechirildi, ular orasida oqsoqlanayotgan Golshtin-friz va Simmental zotli 18 bosh yirik shoxli hayvonlar ajratib olindi davolash ishlari olib borildi. Tadqiqotlar davomida mazkur xo'jalik sharoitida parvarishlanayotgan yirik shoxli hayvonlardan 18 boshi 6 boshdan 3 guruhga bo'lindi va har bir guruh alohida preparatlar bilan davolandi. Davolashdan oldin kasal hayvonlardan patologik namunalar olindi va Qoraqalpoqiston respublikasi hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markaziga olib borilib bakteriologik jihatdan tekshirildi.

Tadqiqot natijalari Tadqiqotlar Qoraqalpoqiston respublikasi Nukus tumani hududidagi "Mo'ynaq kelajagi bunyodkorlari" chorvachilik fermer xo'jaligi sharoitida parvarishlanayotgan xoriydan olib kelingan 18 bosh yirik shoxli hayvonlarda olib borildi. Tadqiqotlar davomida mazkur xo'jalik sharoitida parvarishlanayotgan yirik shoxli hayvonlardan 18 boshi 6 boshdan 3 guruhga bo'lindi va har bir guruh alohida preparatlar bilan davolandi. Davolashdan oldin kasal hayvonlardan patologik namunalar olindi va Qoraqalpoqiston respublikasi hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markaziga olib borilib bakteriologik jihatdan tekshirildi. Tajribadagi I guruhdagi 6 bosh tuyuq kasalliklari bilan kasallangan hayvonlar tuyuqlari furacillin eritmasi bilan yuvilib yara tozalangandan keyin vodorod peroksid eritmasi bilan yuvilib, sungra ACD 3 preparati surtilib, streptotsid tabletkasi maydalab sepilib surtilib davolandi. Tajribadagi II guruhdagi 6 bosh tuyuq kasalliklari bilan kasallangan hayvonlar tuyuqlari furacillin eritmasi bilan yuvilib yara tozalangandan keyin, vodorod peroksid eritmasi bilan yuvilib, yara tozalangandan keyin, vodorod peroksid eritmasi bilan yuvilib, sungra Levomicol preparati surtilib, streptotsid va Levomitsetin tabletkalari maydalab sepilib davolandi. Tajribadagi III guruhdagi 6 bosh tuyuq kasalliklari bilan kasallangan hayvonlar tuyuqlari furacillin eritmasi bilan yuvilib yara tozalangandan keyin, vodorod peroksid eritmasi bilan yuvilib, sungra Levomicol, Deloong preparatlariga streptotsid, Levomitsetin va rifamitsin tabletkalari maydalab aralashtirilib, aralashma yaraga surtilib davolandi.

Tuyuq kasalliklariga chalingan hayvonlarni davolash tug'risidagi ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

Tajribadagi tuyoq kasalliklariga chalingan qoramollarni davolash natijalari.

1-jadval

T/r	Birka	Zoti	Qullanilgan preparatlar nomi	Tuzalgan vaqti (kun)
1.	04457	Golshtin-friz	Furatsillin 1:500 nisbat	34
2.	04458	Golshtin-friz	Vodorod peroksid 3%	30
3.	04459	Golshtin-friz	ACD 3	36
4.	04460	Golshtin-friz	streptotsid	35
5.	04461	Golshtin-friz		35
6.	04462	Golshtin-friz		34
I	Guruh bo'yicha o'rtacha			34
1.	04463	Golshtin-friz	Furatsillin 1:500 nisbat	18
2.	04464	Golshtin-friz	Vodorod peroksid 3%	17
3.	04465	Golshtin-friz	Levomikol	18
4.	04466	Simmental	Streptotsid	16
5.	04467	Simmental	Levomitsetin	16
6.	04468	Simmental		17
II	Guruh bo'yicha o'rtacha			17
1.	04469	Golshtin-friz	Furatsillin 1:500 nisbat	10
2.	04470	Golshtin-friz	Vodorod peroksid 3%	13
3.	04471	Golshtin-friz	Levomikol, Deloong	10
4.	04472	Simmental	Streptotsid, Rifamitsin	11
5.	04473	Simmental	Levomitsetin	10
6.	04474	Simmental		12
III	Guruh bo'yicha o'rtacha			11

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki o'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlarining yakunlari qo'yidagi ko'rinishga ega bo'ldi: Tuyoq kasalliklari bilan kasallangan hayvonlar tuyoqlari furacillin eritmasi bilan yuvilib yara tozalangandan keyin 3% li Vodorod peroksid eritmasi bilan yuvilib so'ngra ACD 3 preparati surtilib, ustiga streptotsid tabletkasi maydalab sepilib davolangan I Tajriba guruhdagi kasal hayvonlar tuliq tuzalishi uchun o'rtacha 34 kun sarflandi. Tuyoq kasalliklari bilan kasallangan hayvonlar tuyoqlari furacillin eritmasi bilan yuvilib yara tozalangandan keyin, vodorod peroksid eritmasi bilan yuvilib, sungra sungra Levomicol preparati surtilib, streptotsid va Levomitsetin tabletkalari maydalab sepilib davolangan II Tajriba guruhdagi kasal hayvonlar tuliq tuzalishi uchun o'rtacha 17 kun kifoya qildi. Tuyoq kasalliklari bilan kasallangan hayvonlar tuyoqlari furacillin eritmasi bilan yuvilib yara tozalangandan keyin, vodorod peroksid eritmasi bilan yuvilib, sungra Levomicol, Deloong preparatlariga streptotsid, Levomitsetin va rifamitsin tabletkalari maydalab aralashtirilib, aralashma yaraga surtilib davolangan III tajriba guruhdagi kasal hayvonlar tuliq tuzalishi uchun sarflangan vaqt, o'rtacha 11 kunga teng bo'ldi.

Davolashda qullanilayotgan dori vositalariga Deloong va rifamitsin preparatlarini qushib ishlatilganda havyvonlarni kasallikdan tuzalish vaqti 6 kunga qisqardi.

Xulosalar:

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalariga ko'ra qo'yidagi xulosaga kelishimiz mumkin:

1. Tuyoq kasalliklari bilan kasallangan hayvonlar tuyoqlari furacillin eritmasi bilan yuvilib yara tozalangandan keyin 3% li Vodorod peroksid eritmasi bilan yuvilib so'ngra ACD 3 preparati surtilib, ustiga streptotsid tabletkasi maydalab sepilib davolangan I Tajriba guruhdagi kasal hayvonlar tuliq tuzalishi uchun o'rtacha 34 kun sarflandi

2. Tuyoq kasalliklari bilan kasallangan hayvonlar tuyoqlari furacillin eritmasi bilan yuvilib yara tozalangandan keyin, vodorod peroksid eritmasi bilan yuvilib, sungra sungra Levomicol preparati surtilib, streptotsid va Levomitsetin tabletkalari maydalab sepilib davolangan II Tajriba guruhdagi kasal hayvonlar tuliq tuzalishi uchun o'rtacha 17 kun kifoya qildi.

3. Tuyoq kasalliklari bilan kasallangan hayvonlar tuyoqlari furacillin eritmasi bilan yuvilib yara tozalangandan keyin, vodorod peroksid eritmasi bilan yuvilib, sungra Levomicol, Deloong preparatlariga streptotsid, Levomitsetin va rifamitsin tabletkalari maydalab aralashtirilib, aralashma yaraga surtilib davolangan III tajriba guruhdagi kasal hayvonlar tuliq tuzalishi uchun sarflangan vaqt, o'rtacha 11 kunga teng bo'ldi

4. O'tkazilgan tajribalar natijasiga ko'ra kasallangan hayvonlarni davolashda qullanilayotgan dori vositalariga Deloong va rifamitsin preparatlarini qushib ishlatilganda havyvonlarni kasallikdan tuzalish vaqti 6 kunga qisqardi..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bannikov V.N. Pedilayn-novyy podxod k infektsionnomu zabolevaniyu korpytes // RasVetInform. Yaroslavl, 2007. -№ 7. –S. 15-16.

2.Gugkaeva M.S., Chexodaridi F.N. Kompleksnaya terapiya gnoynogo pododermatita u korov // Vestnik veterinarii. Kazan, 2011.-№ 57. –S. 67-72

3. Uteev R.A. Kliniko-morfologicheskaya harakteristika i terapiya gnoyno-nekroticheskix protsessov v oblasti palese u korov golshtino-frizskoy porody. Avtoref. // Diss...kand. vet. nauk. Ufa, 2013.-18 s.

4. Rukol, V.M. Rasprostranenie i nozologiya xirurgicheskix bolezney u krupnogo rogatogo skota // Farm Animals. — 2014. — № 2 (6). — S. 42—46.

5. Salimov X.S., Qambarov A.A. va Salimov I. X.: “Epizootologiya va infektsion kasalliklar” darslik Samarqand-2021. 167-174 betlar.

6. Timofeev S.V., Filippov Yu.I., Gimranov V.V. Bolezni korpytes i texnologiya ortopedicheskoy dispanserizatsii / Veterinarnaya meditsina. M., 2009. -№ 1-2. –C. 78-80